

"Uzbekistan Airways" Boku va Nur-Sultonga qatnovlari uchun tariflarni pasaytiradi

2019 21 Noyabr

Joriy yilning 22-noyabridan boshlab "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi Toshkent-Boku-Toshkent va Toshkent-Nur-Sulton-Toshkent yo'nalishlarida iqtisod klassdagi tariflarni pasaytirdi.

Zaruriy sana uchun aviabiletlar narxini 78-140-02-00 raqamiga qo'ng'iroq qilib aniqlashtirish mumkin. Aviabletlarni aviakompaniyaning rasmiy veb-sayti www.uzairways.com da yoki "Uzbekistan Airways"ning barcha savdo ofislarida sotib olishingiz mumkin.

Eslatib o'tamiz, "Uzbekistan Airways" Bokuga haftasiga uch marta seshanba, payshanba va yakshanba kunlari, Nur -Sulton shahriga yakshanba kunidan tashqari har kuni muntazam qatnovlarni amalga oshiradi.